



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI HOKIMINING QARORI

Namangan sh. Istiqlol ko'chasi 57.

2022 йил «18» март

174-6-0-Q/22

Наманган вилояти ҳокимлиги

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalari bo'yicha o'tkazilgan ochiq elektron tanlov natijalarini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida” 2021-yil 24-noyabrdagi 709-son qaroriga muvofiq ochiq elektron tanlov operatori tomonidan o'tkazilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari ishtirokidagi ochiq elektron tanlov yakunlarini ko'rib chiqib, Yer kodeksining 5, 24, 24⁴ va 53-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonunning 6 va 10-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Ochiq elektron tanlov operatori tomonidan taqdim etilgan 10.03.2022 yildagi YU118-262629-son ochiq elektron tanlov natijalari to'g'risidagi elektron bayonnoma tasdiqlansin.

2. Mazkur bayonnomaga muvofiq ochiq elektron tanlov g'olibi bo'lgan “ZAMIN ISTIQBOL AGRO 2022” fermer xo'jaligi (ta'sischi Xolmirzayev Xashimjon Siddikovich)ga Namangan tumani, Oqbuloq mahallasi, “Paxtaobod” hududi (massivi)dan 49, 55k, 90, 91 raqamli konturlardan, ball boniteti 68 va 76 ga teng bo'lgan jami 31,7574 gektar yer uchastkasi 30 yil muddatga ijara huquqi asosida ajratilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Davlat kadastrlari palatasining viloyat boshqarmasi (N.Inamov) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkasining ijara shartnomasi asosida ikki ish kuni ichida ochiq elektron tanlov g'olibining yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqini davlat ro'yxatidan o'tkazsin hamda tegishli reyestrda ko'chirmani elektron axborot

almashinuvi orqali “O‘zdavyerloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti viloyat bo‘linmasiga yuborsin.

4. Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi (S.Muxitdinov):

yer uchastkasidan maqsadli foydalanish bo‘yicha davlat nazoratini amalga oshirsin;

yer uchastkasi chegaralarini (chegara nuqtalarini) o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirishga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rsin;

yer uchastkasi o‘zboshimchalik bilan egallab olinishiga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan samarali yer nazoratini amalga oshirsin va aniqlangan qonunbuzilish holatlari bo‘yicha Yer to‘g‘risidagi qonun buzilishi holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan faoliyatni muvofiqlashtirish bo‘yicha hududiy kengashlarga xabar bersin;

yer uchastkalaridan maqsadsiz foydalanish holatlari aniqlanganda O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasiga muvofiq ushbu yer uchastkalariga bo‘lgan huquqni bekor qilish, o‘zboshimchalik bilan egallangan yer maydonida noqonuniy qurilgan imoratlarni bartaraf etish yuzasidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri sudga murojaat qilsin.

5. “O‘zdavyerloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti viloyat bo‘linmasi (T.Shermatov):

ochiq elektron tanlov g‘olibining yer uchastkasiga bo‘lgan ijara huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida reyestrda ko‘chirmani olgan kunning o‘zida ijara shartnomasi, mazkur qaror hamda reyestrda ko‘chirmani tanlov g‘olibiga “E-IJARA” AT orqali yuborish;

uch ish kuni ichida ochiq elektron tanlov g‘olibiga yer uchastkasining chegarasini joyida ko‘rsatib berish vazifasi yuklatilsin.

6. Ochiq elektron tanlov g‘olibi bo‘lgan “ZAMIN ISTIQBOL AGRO 2022” fermer xo‘jaligiga quyidagi majburiyatlarga ega:

yer uchastkasining ixtisoslashuvini ijara shartnomasi shartlariga muvofiq saqlash;

yerdan uning belgilangan maqsadiga muvofiq oqilona va samarali foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishning tabiatni muhofaza qiluvchi va tejankor texnologiyalarini qo‘llash, o‘z xo‘jalik faoliyati natijasida hududdagi ekologik vaziyatning yomonlashuviga yo‘l qo‘ymaslik;

ishlayotgan irrigatsiya va meliorativ tarmoqlarni, muhandislik kommunikatsiyalarini soz holatda saqlash;

yerni muhofaza qilish bo'yicha qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan kompleks tadbirlarni amalga oshirish;

yer solig'ini o'z vaqtida to'lash;

boshqa yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yerni ijaraga oluvchilar va yer uchastkalari mulkdorlarining huquqlarini buzmaslik;

belgilangan shakllardagi hisobotlarni vakolatli organlarga o'z vaqtida taqdim etish;

boshqa yer egalari, yerdan foydalanuvchilarga, yerni ijaraga oluvchilarga va yer uchastkalari mulkdorlariga yetkazilgan zararni belgilangan tartibda to'lash;

qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini (uch yil ichidagi o'rtacha yillik hisobda) yerlarning normativdagi kadastr bahosidan past bo'lmagan darajada bo'lishini ta'minlash;

o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquq (servitut)laridan foydalanishini ta'minlash.

7. Namangan tuman hokimi (S.Mo'minov):

ochiq elektron tanlov g'olibi "ZAMIN ISTIQBOL AGRO 2022" fermer xo'jaligi bilan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkasining ijara shartnomasini bir ish kuni muddatda "E-IJARA" axborot tizimi orqali tasdiqlasin;

yerlardan oqilona va samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqsin hamda amalga oshirsin;

yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirsin;

yer tuzishni, yerlarning monitoringini va davlat yer kadastr yuritilishini tashkil etsin;

yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarning hamda ularga oid bitimlarning davlat ro'yxatiga olinishini tashkil etsin.

8. Viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (A.Abdusalamov):

yer uchastkasidan foydalanishni tashkil etish va uni muhofaza qilish sohasida samarali davlat nazoratini amalga oshirsin;

yer uchastkasidan maqsadli va samarali foydalanishni, shuningdek ushbu yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish va parvarishlashni monitoring qilsin;

qishloq xo‘jaligi ekinlarining navlar bo‘yicha joylashtirilishini, konturlar bo‘yicha ekin turlari to‘liq ekilishini, belgilangan agrotexnik tadbirlar o‘tkazilishini, mineral o‘g‘itlar, yoqilg‘i-moylash materiallari va boshqa moddiy-texnika resurslarini tanlov g‘olibiga belgilangan tartibda yetkazib berilishining monitoringini yuritsin va natijalari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqsin;

tuproq unumdorligini saqlash va oshirishni ta‘minlash sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib borsin.

9. Mazkur qarorning joylarda ijrosini ta‘minlash bo‘yicha nazoratni viloyat hokimining o‘rinbosari A. Xakimov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



Sh.Abdurazakov

Namangan viloyat hokimining
2022 yil 18 martdagi
174-6-0-Q/22-son qaroriga
1-ilova

**Ochiq elektron tanlov g'olibi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarga ijara huquqi asosida ajratilgan
qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalari to'g'risida**

MA'LUMOT

№	Ochiq elektron tanlov g'olibi to'g'risida ma'lumot	Yer uchastkasi joylashgan		Ajratilgan yer uchastkasi			Yer uchastkasi ijara huquqi muddati
		Tuman (shahar)	MFY	Kontur raqami	Ball boniteti	Maydoni (ga)	
1.	XOLMIRZAYEV XASHIMJON SIDDIKOVICH	Namangan tumani	Oq buloq	49; 55; 90; 91;	68; 76; 76; 76;	31,7574	30